KREDIT-MODUL TIZIMI SHAROITIDA TARBIYA FANI O‘QITUVCHILARINING FASILITATORLIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH TAMOYILLARI

Xamidova Sabrina Abduvahob qizi, Guliston davlat pedagogika instituti “Pedagogika va psixologiya kafedrasi” kafedrasi o‘qituvchisi.
e-mail: sh2759838@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy ta’lim tizimi, xususan kredit-modul tizimi sharoitida bo‘lajak tarbiya fani o‘qituvchilarida fasilitatorlik kompetensiyalarini shakllantirish masalalari tahlil qilinadi. Fasilitatorlikning mohiyati, uning zamonaviy pedagogik jarayondagi ahamiyati hamda bu kompetensiyalarni rivojlantirish tamoyillari bayon etiladi.

Kalit so‘zlar: fasilitator, kompetensiya, kredit-modul tizimi, tarbiya, pedagog, interfaol metodlar, ta’lim texnologiyalari;

ПРИНЦИПЫ ФОРМИРОВАНИЯ ФАСИЛИТАЦИОННЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ УЧИТЕЛЕЙ ОБРАЗОВАНИЯ В УСЛОВИЯХ КРЕДИТНО-МОДУЛЬНОЙ СИСТЕМЫ

Аннотация. В статье анализируются вопросы формирования компетенций фасилитатора у будущих учителей образования в условиях современной системы образования, в частности кредитно-модульной системы. Описаны сущность фасилитации, ее значение в современном педагогическом процессе, принципы формирования данных компетенций.

Ключевые слова: фасилитатор, компетентность, кредитно-модульная система, образование, педагог, интерактивные методы, образовательные технологии;

PRINCIPLES OF DEVELOPING FACILITATORY COMPETENCES OF EDUCATION TEACHERS IN THE CONDITIONS OF THE CREDIT-MODULE SYSTEM

Abstract. This article analyzes the issues of forming facilitator competencies in future teachers of education in the conditions of the modern education system, in particular, the credit-module system. The essence of facilitation, its importance in the modern pedagogical process, and the principles of developing these competencies are described.

Keywords: facilitator, competency, credit-module system, education, pedagogue, interactive methods, educational technologies;

Kirish. Bugungi kunda dunyo ta’lim tizimida yuz berayotgan yangilanishlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi, ta’lim jarayonining globallashuvi va inson kapitalining ahamiyati ortib borayotgani oliy ta’lim muassasalarida pedagogik jarayonni yangicha yondashuvlar asosida tashkil etishni talab qilmoqda. O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida bosqichma-bosqich joriy etilayotgan kredit-modul tizimi esa ushbu yondashuvlarning amaliy ifodasidir. Bu tizim talabaga o‘quv jarayonida mustaqillik, tanlash erkinligi, individual ta’lim trayektoriyasini belgilash imkoniyatini yaratib berar ekan, o‘qituvchining roli ham tubdan o‘zgarishini taqozo etmoqda. Endilikda o‘qituvchi faqatgina bilim beruvchi emas, balki talabani o‘zlashtirish, tafakkur qilish, mustaqil qaror qabul qilishga yo‘naltiruvchi – ya’ni **fasilitator** sifatida faoliyat yuritishi zarur bo‘lmoqda.

Xususan, tarbiya fani doirasida bu o‘zgarishlar yanada dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunki bu fan nafaqat nazariy bilim berish, balki talabalarni ijtimoiy-axloqiy qadriyatlar asosida shakllantirish, ularning shaxsiy va fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish, ijtimoiy hayotda faol ishtirok etadigan shaxs bo‘lib kamol topishlariga xizmat qiladi. Tarbiya jarayonining samaradorligi esa, birinchi navbatda, o‘qituvchining pedagogik mahorati, kommunikativ salohiyati, yetakchilik fazilatlari va ayniqsa, fasilitatorlik kompetensiyalariga bevosita bog‘liqdir.

Fasilitatorlik kompetensiyalari deganda, o‘qituvchining talaba bilan samarali muloqot olib borishi, o‘quv jarayonini talabaning faolligiga asoslangan tarzda tashkil etishi, individual yondashuvni qo‘llay olishi, talabalarni o‘z-o‘zini rivojlantirishga unday olishi va ularning fikrini erkin ifoda etishga imkon yaratishi tushuniladi. Aynan shu kompetensiyalarni rivojlantirish kredit-modul tizimining ichki mazmuni va yondashuvlariga mos keladi.

Shu bois, hozirgi kunda tarbiya fani o‘qituvchilarining fasilitatorlik kompetensiyalarini shakllantirish va ularni tizimli ravishda rivojlantirish – ta’lim-tarbiya jarayonining sifatini oshirish, talabalarda mustaqil fikrlash va ijtimoiy faollikni kuchaytirish yo‘lida muhim omil hisoblanadi. Ushbu maqolada aynan shu masalaga e’tibor qaratilib, zamonaviy ta’limda tarbiya fani o‘qituvchilari uchun fasilitatorlik kompetensiyalarining ahamiyati, ularni rivojlantirish tamoyillari va amaliy yo‘nalishlari tahlil qilinadi.

Asosiy qism.

Kredit-modul tizimi – bu talaba markazlashgan yondashuvga asoslangan ta’lim modelidir. Unda o‘quv jarayoni modul asosida tashkil etilib, har bir modul yakunida talabaning bilim, ko‘nikma va kompetensiyalari baholanadi. Ushbu tizimda o‘qituvchi vazifasi an’anaviy "bilim beruvchi subyekt" emas, balki talabani mustaqil ta’limga, faol ishtirokga, tanqidiy tafakkurga va o‘zini baholashga yo‘naltiruvchi fasilitatorga aylanadi.

Bu o‘zgarish tarbiya fani uchun ham ayni dolzarbdir, chunki tarbiya jarayoni shaxsga yo‘naltirilgan, murakkab, ijtimoiy-psixologik va axloqiy jihatdan nozik munosabatlar asosida quriladi. Fasilitator o‘qituvchi bu munosabatlarni ijobiy yo‘naltiruvchi, maqsadli tashkil qiluvchi va talabalarda ongli qaror qabul qilishga turtki beruvchi shaxs sifatida maydonga chiqadi.

Fasilitatorlik kompetensiyalarining mazmuni va zarurati:

Fasilitatorlik kompetensiyalari bu – o‘qituvchining:

- pedagogik muloqotni samarali tashkil etish,
- psixologik muhitni boshqarish,
- o‘quvchilarni faol fikrlashga undash,
- shaxsiy va ijtimoiy faollikni qo‘llab-quvvatlash,
- jarayonni baholash va refleksiya qilish kabi ko‘nikmalar majmuidir.

Tarbiya fanida ushbu kompetensiyalar quyidagi jihatlar orqali o‘z ifodasini topadi:

- Kommunikativ kompetensiya – talabalar bilan ochiq, ishonchli muloqotni ta’minlash.
- Motivatsion kompetensiya – talabalarni o‘quv-tarbiya jarayoniga jalb qilish, ichki motivatsiyasini uyg‘otish.
- Empatik yondashuv – har bir talabaga individual e’tibor va tushunish bilan yondashish.
- Tashkiliy-boshqaruv kompetensiyasi – darsni rejalashtirish, vaqtni boshqarish, guruh ishlarini muvofiqlashtirish.
- Refleksiv kompetensiya – talaba va o‘z faoliyatini baholay olish ko‘nikmasi.

Bu kompetensiyalar tarbiya fanining amaliy, dialogik, aks ettiruvchi (reflektiv) xususiyati bilan uyg‘unlashib, ta’lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qiladi [1, 129-b]

3. Fasilitatorlik kompetensiyalarini shakllantirish tamoyillari

Tarbiya fani o‘qituvchilari faoliyatida quyidagi asosiy tamoyillar asosida fasilitatorlik kompetensiyalarini rivojlantirish mumkin:

a) Shaxsga yo‘naltirilganlik tamoyili: Talabaning individual ehtiyojlari, qiziqishlari, bilim darajasi va ijtimoiy tajribasiga tayangan holda ta’lim va tarbiya jarayonini tashkil etish. Bu tamoyil orqali o‘qituvchi har bir talaba uchun ma’naviy va ijtimoiy o‘sish imkoniyatlarini yaratadi.

b) Hamkorlik va dialog tamoyili: O‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi teng huquqli, ishonchga asoslangan muloqotni ta’minlash. Tarbiya darslarida ochiq suhbatlar, bahs-munozaralar, guruhiy ishlarda hamkorlik asosida faoliyat yuritish – talabaning fikr bildirish va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

c) Faollik va mustaqillik tamoyili: Tarbiya fanida talabani faollikka undovchi metodlardan foydalanish (keys-stadi, rolli o‘yinlar, loyihalar, munozaralar). Bu orqali talaba nafaqat bilim oladi, balki shaxsiy fikrini shakllantiradi va namoyon etadi.

d) Refleksiya tamoyili: Har bir darsdan so‘ng talabalarning o‘zini va boshqalarni baholashi, o‘z his-tuyg‘ularini anglab yetishi, fikrlari ustida ishlashi ta'minlanadi. O‘qituvchi bu jarayonga rahbarlik qiladi va ko‘maklashadi.

e) Innovatsion yondashuv tamoyili: Zamonaviy interaktiv texnologiyalar va innovatsion metodlardan (digital platformalar, video tahlil, onlayn forumlar, vizual taqdimotlar) foydalanish orqali ta’lim-tarbiya jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilish.

Tadqiqot adabiyotlari va metodologiyasi.

Madaminov F. S. Kredit-modul tizimida pedagogik fasilitatsiya vositasida o‘quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish (2023, *Science and Education*) [2, 221-225-b]. Ushbu maqolada kredit-modul jarayonida o‘qituvchining fasilitator sifatida talabaning mustaqil ishlarida rolini qanday shakllantirish, “qarorlar shajarasi” metodi, innovatsion baholash, xorijiy tajribalar misolida tahlil qilingan.

Shokirov T. F. Kredit-modul sharoitida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish mexanizmlari (2025, *Ilm-fan yangiliklari*) Ta’limda interfaol usullar, raqamli resurslar va modul asosidagi yondashuv orqali pedagoglarning kompetensiyalarini shakllantirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar keltirilgan [3, 112-118].

Muhiddinova N. B. Oliy ta’lim muassasasida xorijiy tajriba asosida kredit-modul tizimini joriy etish. Modul ta’limda innovatsion usullar, raqamli texnologiyalar va ta’lim sharoitlari muhitini ishlab chiqish haqida. Asosiy manbalar va yondashuvlar bilan to‘ldirilgan [4, 87-92-b]

1. Kredit-modul tizimining mazmuni va xususiyatlarini tahlil qilish;

2. Tarbiya fani o‘qituvchilarining faoliyatida fasilitatorlik kompetensiyalarining tutgan o‘rnini aniqlash;

3. Fasilitatorlik kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish tamoyillarini ishlab chiqish;

4. Amaliy tavsiyalar va metodik yo‘riqnomalar asosida takliflar ishlab chiqish.

Tadqiqotda quyidagi **ilmiy-tadqiqot metodlaridan** foydalanildi:

- **Nazariy tahlil** – mavjud ilmiy adabiyotlar, qonunchilik hujjatlari, o‘quv dasturlari va xorijiy tajribalarning nazariy o‘rganilishi orqali mavzuning ilmiy asoslarini aniqlash;
- **Empirik metodlar** – oliy ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan tarbiya fani o‘qituvchilari bilan so‘rovnoma, suhbat, kuzatish, intervyu o‘tkazish orqali amaliy ma’lumotlar to‘plash;
- **Diagnostik metodlar** – o‘qituvchilarning fasilitatorlik kompetensiyalarini baholash uchun maxsus test va diagnostik savollar ishlab chiqildi;
- **Eksperimental-metodik yondashuvi** – metodik tavsiyalar asosida sinov darslarini tashkil etish, o‘quv jarayoniga innovatsion metodlarni joriy etish orqali ularning samaradorligini aniqlash;
- **Taqdim etilgan natijalarni statistik tahlil qilish** – to‘plangan ma’lumotlar asosida foizlar, o‘rtacha ko‘rsatkichlar, diagrammalar yordamida tahlil qilish.

Tadqiqot maydoni:

Tadqiqot tajribalari O‘zbekistonning bir necha oliy ta’lim muassasalarida – jumladan, pedagogika yo‘nalishida ta’lim beruvchi universitetlar (O‘zMU, Termiz davlat universiteti, Farg‘ona davlat universiteti) da olib borildi.

Tadqiqotning yangiligi:

Tadqiqotda tarbiya fani o‘qituvchilari faoliyatida fasilitatorlik kompetensiyalarini rivojlantirishga oid tamoyillar tizimlashtirildi, amaliyotga tatbiq etish mexanizmlari ishlab chiqildi va ularning samaradorligi tajriba asosida sinovdan o‘tkazildi.

Natijalarning ishonchliligi:

Tadqiqot natijalari ilg‘or xorijiy va milliy tajriba bilan solishtirildi, statistik tahlil asosida tasdiqlandi, amaliy darslar va interaktiv mashg‘ulotlar orqali verifikatsiya qilindi.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi – kredit-modul tizimi sharoitida tarbiya fani o‘qituvchilarining fasilitatorlik kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi tamoyillarni aniqlash, ularni ilmiy asoslash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tahlil va natijalar. Bizning tadqiqot ishlarimiz davomida “tarbiya” fani orqali, ularda kasbiy faoliyatda faslitatorlik faoliyati bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalari shakllantirildi.

Tahliliy materiallar asosida oliy ta’lim muassasalarida 1, 2, 3-kurslarning o‘quv rejasiga asosan, “Pedagogika nazariyasi va tarix”, “Pedagogik mahorat”, “Kreativ pedagogka” fanlaridan tashkil etiladigan ma’ruza, amaliy mashg‘ulot va mustaqil ta’lim mashg‘ulotlarini tashkil etishda faslitatorlik bilim, ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirishning shart-sharoitlari o‘rganildi va o‘rganishlar natijasida mavzularni o‘qitish jarayonida talabalarni fasliitatorlik faoliyatga tayyorgarligiga e’tibor qaratildi.

Zamonaviy pedagogik vositalar, metodlar tizimi va tashkil etish shakllari

1 - jadval

Birinchi bosqich: talabalarni faslitatorlik ko‘nikmalarini takomillashtirish bosqichi	
Tashkiliy-pedagogik shart-sharoitni amalga oshirish	
Maqsad	Faslitatorlik faoliyat jarayoniga kirishga tayyorlash.
Mazmun	“Tarbiya” fani dasturlari bo‘yicha birinchi, ikkinchi, uchinchi bosqichlarda o‘qitish
Yondashuvlar	Tizimli (samarali ma’ruza, amaliy mashg‘ulotlar tizimi),

	bilimlarni to‘la o‘zlashtirish, aqliy xarakatlarni bosqichma-bosqich shakllantirish)
Zamonaviy pedagogik vositalar, metodlar tizimi va tashkil etish shakllari	Pedagogik dasturiy vositalar: maqsadga yo‘naltirilgan dasturiy mahsulotlar, texnologik va metodik ta’minot, qo‘shimcha yordamchi vositalar (tarqatma materiallar, internet, elektron ta’lim resurslari). Innovatsion pedagogik metodlar: an’anaviy (og‘zaki, suhbat, namoyish, video usul va.h.z.) hamkorlikda o‘rganish (aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, intervyu, davra suhbati va h.z.) Tashkiliy shakllari: “Ma’ruza”, “Amaliy mashg‘ulot”, “Mustaqil ta’lim”.
Natija	Talabalar faslitatorlikka oid munosabatlarni, voqea va hodisalarni tahlil qila olishni o‘rganadilar, faslitatorlik ko‘nikmalari shakiillanadi, kasbiy innovatsion faoliyat jarayoniga sifatliroq tayyorlanadilar.
Ikkinchi bosqich: pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish va topshiriqlarni bajarish jarayonida faslitatorlik ko‘nikmalarini shakllantirish	
Natija	Talabalarda faslitatorlik ko‘nikmalari shakllanadi, tanlagan kasbiga nisbatan mehr-muhabbatda bo‘lishi, kasbiy yetuklikka erishish, kasb bilan bog‘liq bo‘lgan ehtiyojlar kelgusi faoliyatida namoyon bo‘ladi. Talaba kasbiy innovatsion faoliyatda faslitatorlik ko‘nikmalarini qo‘llay oladi.

Tadqiqot ishi davomida talabalarda faslitatorlik ko‘nikmalarini shakllantirishning uch bosqichdan iborat tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarini ko‘rib chiqamiz.

- Talabalar pedagogik munosabatlarni, voqea va hodisalarni tahlil qila olishni o‘rganadilar, kasbiy innovatsion faoliyat jarayoniga tayyorlanadilar, faslitotor haqida bilimga ega bo‘ladi; talabalarning “Tarbiya” fani haqidagi bilim doiralari va dunyoqarashi kengaytiriladi; kasbiy faoliyat jarayonini idora qilish, natijalarni tahlil qilish va baholash, boshqalar uchun mas’uliyatni his kilish, faslitatorlik sifatlari rivojlantiriladi.

- Talabalarning tanlagan kasbiga nisbatan mehr-muhabbatda bo‘lishi, kasbiy yetuklikka erishish, kasb bilan bog‘liq bo‘lgan ehtiyojlari hissiy namoyon bo‘ladi; jamoatchilik, vatanga sadoqat ruhida tarbiyalanadi, pedagogik, psixologik bilimlarga intilish va mehnatga muhabbat, mehnat kishisiga nisbatan hurmat hissini singdiriladi; o‘zini hurmat kilish, mas’uliyatlilik; mehnat jamoasining huquq va ahloq me’yorlariga hurmat hislari, faslitatorlik ko‘nikmalari, kasbiy kompetensiyalari rivojlantiriladi, faslitatorlik ko‘nikmalari tarbiyalanadi.

- Talabalarda kasbiy qiziquvchanlik, ijtimoiy faollik, tirishqoqlik, qat’iyatlilik, jo‘shqinlik, tashabbuskorlik, tadbirkorlik, faslitatorlik sifatlari rivojlantiriladi; mehnat jamoasida kasbiy faoliyat doirasida faslitatorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga va takomillashtirishga qaratilgan g‘oyalar bilan chiqishga o‘rganadilar; yangilikni izlab topish va uni amaliyotga joriy etish; o‘zi va o‘zgalarning faoliyatini baholay olishlik; bashorat qila olishlik, kasbiy faoliyatni tashkil etish, uyushtirish va boshqaruvchanlik ko‘nikmalari shakllantiriladi, kasbiy faoliyatga tayyor bo‘ladi, fasliitatorlik ko‘nikmalari takomilashadi.

Xulosa va takliflar.

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy ta’lim tizimida, ayniqsa, kredit-modul asosidagi o‘quv jarayonida o‘qituvchining an’anaviy roli o‘zgarib, u faol tashkilotchi, yo‘naltiruvchi va talabaning rivojlanishiga ko‘mak beruvchi – **fasilitator**ga aylanmoqda. Bu holat tarbiya fanida yanada muhim

ahamiyat kasb etadi, chunki mazkur fan ijtimoiy-ma’naviy qadriyatlar, fuqarolik pozitsiyasi va shaxsiy ongli rivojlanishni shakllantirishga qaratilgan.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, tarbiya fani o‘qituvchilari uchun fasilitatorlik kompetensiyalarini shakllantirish quyidagi yo‘nalishlarda zarur va samaralidir:

- Talabalarning mustaqil fikrlash, tanqidiy tahlil va ijtimoiy faolligini rivojlantirish;
- O‘quv jarayonida ochiq muloqot, o‘zaro hurmat va ishonch muhitini shakllantirish;
- Interaktiv metodlar, loyiha va keys-stadi asosidagi darslarni joriy etish orqali talabaning tarbiyaviy jihatdan shakllanishiga erishish;
- Fasilitatorlik kompetensiyalarini rivojlantirish uchun pedagoglarning doimiy metodik qo‘llab-quvvatlanishi va reflektiv faoliyat yuritishi zarurligi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, o‘qituvchilarning kommunikativ, empatik va motivatsion kompetensiyalari nisbatan yaxshi shakllangan bo‘lsa-da, reflektiv yondashuv, innovatsion texnologiyalarni qo‘llash va talabani o‘zlashtirishga yo‘naltirish borasida hali salohiyat to‘liq namoyon bo‘lmayapti. Shu sababli, amaliy mashg‘ulotlar, seminarlar, metodik treninglar orqali ushbu ko‘nikmalarni shakllantirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Umuman olganda, tarbiya fanini kredit-modul tizimi asosida o‘qitishda o‘qituvchining fasilitator sifatidagi roli nafaqat ta’limning, balki tarbiyaning ham sifati va samaradorligini oshirishda hal qiluvchi omil bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jalolov J. Pedagogika: nazariya va amaliyot. – Toshkent: “Fan”, 2021. 384-b.
2. Madaminov F. S. Kredit-modul tizimida pedagogik fasilitatsiya vositasida o‘quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish // Science and Education. 2023. №4(11). – B. 221-225.
3. Shokirov T. F. Kredit-modul sharoitida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish mexanizmlari // *Ilm-fan yangiliklari*. 2025. №2. – B. 112-118.
4. Muxiddinova N. B. Oliy ta’lim muassasasida xorijiy tajriba asosida kredit-modul tizimini joriy etish // Pedagogik izlanishlar. 2021. №3(17). – B. 87-92.
5. Hizam S. M., Salleh N., et al. Digital Competency of Educators in the Virtual Learning Environment // International Journal of Academic Research. 2021. Vol. 3, No. 6. – P. 55-62.
6. Marienko M., Kalashnikova T. Personalization of Learning through Adaptive Technologies // European Journal of Education. 2020. Vol. 58, Issue 2. – P. 122-130.